UDK: 891.709 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss2/a61**

SAKKOKIY ADABIY MEROSI O‘RGANILISHI MANBALARI XUSUSIDA

К ИСТОЧНИКАМ ИЗУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО НАСЛЕДИЯ САККОКИ

ON THE SOURCES OF SAKKOKI’S LITERARY HERITAGE STUDY

Israilov G‘ayrat Boyzoq o‘g‘li[1]

[1]Israilov G‘ayrat Boyzoq o‘g‘li – *Jizzax davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi.*

Annotatsiya

Ushbu maqola Sakkokiy hayoti va ijodini o‘rganilishi haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirishga bag‘ishlangan. Maqolada ko‘plab adabiyotshunoslarning nazariy fikrlariga tayaniladi va ularga munosabat bildiriladi.

O‘zbek adabiyotida dilbar g‘azallari bilan salmoqli hissa qo‘shgan shuningdek, o‘zbek qasidachiligining asoschilaridan biri Mavlono Sakkokiy haqida juda kam ma’lumotga egamiz. Shu o‘rinda aytish munkinki, Sakkokiy va u yashagan davr, uning adabiy faoliyati, shuningdek uni XV asr o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni haqida Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul–lug‘atayn” asarlaridan qimmatli ma’lumotlarni bilishimiz mumkin.

Аннотация

Данная статья посвящена обобщению сведений об изучении жизни и творчества Саккоки. Статья опирается на теоретические взгляды многих литературоведов и обращается к ним.

Мы очень мало знаем об одном из основоположников узбекской поэзии Мавлоно Саккоки, внесшем значительный вклад в узбекскую литературу своими очаровательными стихами. Стоит отметить, что Саккоки и его период, его литературная деятельность, а также его место в узбекской литературе XV века являются ценными произведениями Алишера Навои «Медолис ун-нафоис», «Муҳокамат ул-луғатайн», мы можем знать данные.

Abstract

This article summarizes information about the study of Sakkoki’s life and work. The article draws on the theoretical opinions of many literary critics and addresses them.

We know very little about Mavlono Sakkoki, one of the founders of Uzbek poetry, who made significant contributions to Uzbek literature with his charming poems. It is worth mentioning that Sakkoki and his period, his literary activity, as well as his place in the Uzbek literature of the XV century are valuable works of Alisher Navoi’s "Majlis un-nafois", "Muhokamat ul-lug‘atayn", we can know the data.

Kalit so‘zlar: *Sayroniy, Sabroniy, sakkok, turkiygo‘y shuaro, malik ul-kalom, qasida.*
Ключевые слова: *Сайроний, Саброний, Саккок, Туркого Шуаро, одержимые народы, Касида.*
Keywords: *Saironi, Sabroni, Sakok, Turkogo Shuaro, possessed nations, qasida.*

KIRISH. Sakkokiy haqida Alisher Navoiy “Majolisun nafois”da shunday deydi: “Mavlono Sakkokiy Movarounnahrdindur: Samarqand ahli anga ko‘p mu’taqiddurlar va bag‘oyat ta’rifin qilurlar. Ammo faqir Samarqandda erkanda muarriflaridin har necha tafahhus qildimkim, aning natoiji tab’idin biror nima anglayin, ta’rif qilg‘onlaricha nima zohir bo‘lmadi. Barchadin qolsalar so‘zlari budurkim, Mavlono Lutfiyning barcha yaxshi she’rlarin aningdurkim, o‘g‘urlab o‘z otig‘a qilibdur. Ul erlarda bu nav’ o‘xshashi yo‘q, mazasiz mukobaralar gohi voqe’ bo‘lur. Bori ba’zisi ta’rif qilibkim o‘qurlar, bu matla’ni anga isnod qilurlarkim:

Ne nozu bu,ne shevadur, ey jodu ko‘zluk sho‘xshang,
Kabki dariy tovusda yo‘q, albatta, bu raftoru rang.
Qabri ham ul sori — o‘qdur” .

Yoki shu asarda yana “... muqaddam turkiygo‘y shuarodin, xoh Mavlono Lutfiy va xoh Mavlono Sakkokiykim, Movarounnahrda malik ul-kalom erdilar...”, deya e’tirof etadi (171– bet).

A.Navoiy “Muhokamat ul lug‘atayn” asarida ham Mavlono Sakkokiyni eslaydi: “…Sultoni Sohibqiron Temur Ko‘ragon zamonidan farzandi xalafi Shohrux Sultonning zamonining oxirg‘acha turk tili bila shuaro paydo bo‘ldilar. Va ul Hazratning avlod va ahfodidin ham xushtab salotine

zuhurg‘a keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqumiy va Yaqiniy va Gadoiydeklar” .

Alisher Navoiyning “Majolis un nafois” va “Muhokamat ul lug‘atayn”da yozganidan bo‘lak “Xutbai davovun”da ham Sakkokiy haqida shunday ma’lumotlarini qoldirgan: “Va uyg‘ur iboratining fusahosidin va turk alfozining bulag‘osidin Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiykim, birining shirin ab’yoti ijtihodi Turkistonda beg‘oyat va birining latif g‘azaliyoti intishiori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur, ham devonlari mavjud bo‘lg‘ay” , degan eътiroflarini uchratamiz. Shunday qilib, hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, Mavlono Sakkokiy ajoyib lirik sheърlar va betakror qasidalar ijod etgan hamda o‘zbek mumtoz adabiyotining ravnaq topib, gullab yashnashiga maълum hissa qo‘shgan buyuk shoirlardan biri sifatida tarixda muhrlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Shoir Yaqiniyning “O‘q va yoy” asarida: “Sakkokiykim, turk shoirlarining mujtahididur” (g‘ayratlisi) deb ta’riflanishi, uning o‘z zamonasining zabardast shoirlaridan biri ekanligini bildiradi.

Sakkokiy XIV asr ikkinchi yarmi, to‘g‘rirog‘i oxirgi choragida tug‘ilgan va XV asrning birinchi yarmida Ulug‘bek hukmronligida yashab, ijodiy kamolotga erishgan shoirdir.

Sakkokiy shoirning taxallusi bo‘lib, tug‘ilgan eri, yili ham noma’lum. Venger turkiyshunos olimi Yanos Ekmanning qayd etishicha, Sakkokiy XIV asrning ikkinchi yarmida tug‘ilgan va XV asrning birinchi yarmida vafot etgan. Sakkokiyning hayoti asosan Samarqandda o‘tgan. U ilk sheърlarini Amir Temur davrida yoza boshlagan bo‘lsa, ijodiy kamoloti Ulug‘bek saltanati yillariga to‘g‘ri keladi.

Sakkokiy—movarounnahrlik shoir. U temuriylar poytaxti Samarqandda yashadi va ijod qildi. Shoir devonidagi:

Dasht elidin hoji Tarhonga etushsa bu g‘azal,
Tark etar har baytiga osuda dunyosin Saroy —…

…bayti uning boshqa yerlarda ham bo‘lganini ko‘rsatadi. Ammo bu baytdagi “dasht eli” Dashti qipchoqmi, Buxoro yaqinidagi Dashtakmi, Samarqandning Dashtaki bolosimi yoki boshqa biror joymi, aniq bir gap aytish qiyin, albatta. Shoir ijodiy merosida ko‘zga tashlanadigan bunday ishoralar maxsus tadqiqotga muhtojdir.

Sakkokiy shoirning adabiy taxallusi bo‘lib, uning asl nomi hamon maълum emas. Sakkokiy taxallusi “sakkok” (pichoqchi) so‘zidan olingan. Bunday ishora shoir hunarmand oilasidan etishib chiqqan, deb faraz qilishga imkon beradi. Shoirning tug‘ilgan yili ham aniq emas. Adabiyotshunos N.Mallaevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobida Sakkokiyning XIV asrning ikkinchi yarmida, ehtimol, o‘sha yuz yillikning oxirgi choragida tavallud topganligi qayd etiladi. Zabardast olim yuqoridagi fikrining tasdig‘i sifatida shoir devonida hijriy 810 (1407–1408) yilda amir Temurning nabirasi Xalil Sultonga (1405–1409) bag‘ishlab bir qasida yozganligini ko‘rsatadi. Jumladan, o‘sha madhiyada quyidagi misralar mavjuddir:

Tarixqa sakkiz yuz dogi o‘n erdiyu qadr oqshomi.
Bir oy tug‘ildi dunyoda kim mamlakatda xon erur.

Shu o‘rinda, aytish mumkinki, shoir tug‘ilgan joyi haqida, Mashhura Hasanovaning “Sakkokiy (Sayroniymi? Sabroniy?!)” maqolasidagi ushbu fikrlarni keltiramiz: “Sayroniy” so‘zi arab alifbosida – يناريسد shaklida yozilsa, “Sabroniy” so‘zi – يناربسد shaklida yoziladi. Ya’ni, “yoy” va “be” harflarining bitta nuqta hisobiga farqlanishini hisobga olsak, bu so‘z qo‘lyozmada noto‘g‘ri yozilganligi (ya’ni, bir nuqta tushib qolganligi) oqibatida, “Sayroniy”ga “aylanib qolgan” bo‘lishi mumkin. Demak, shoir nafaqat Sabronda ma’lum vaqt yashagan, balki shu yerda tug‘ilgan va shuning uchun ham Sabroniy nisbasi bilan atalgan” .

Lekin shunisi aniqki, Sakkokiyning ijodi Ulug‘bek davrida (1409 – 1449) kamol topdi. U Ulug‘bekni ma’rifatparvar shoh sifatida ulug‘laydi:

Jahondin ketti tashvishu mabodiyi omon keldi,
Xaloyiq, aysh eting, bu kun sururi jovidon keldi.

Tan erdi bu ulus barcha aningtek joni bor yo yo‘q,
Bihamdillah, o‘g‘on fazli bila ul tanga jon keldi
(Hayot vasfi,283–bet).

Prof. N. Mallaev Sakkokiyning Ulug‘bekka yozgan qasidasini, chamasi 30 yoshlarida yozgan bo‘lishi kerak, deb taxmin qiladi. Bu haqida taniqli adabiyotshunos A.Hayitmetovning “Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti” (Toshkent, 1996) kitobida quyidagi fikrlar keltiriladi: “Ulug‘bek saroyida eng obro‘li va nomdor o‘zbek shoiri, shubhasiz, Sakkokiy edi. Uning dilrabo lirik sheъrlari bilan bir qatorda o‘zbek tilida Ulug‘bek, Arslon Xo‘ja Tarhon, Xo‘ja Muhammad Porso haqidagi qasidalari ham bu sheъriy janrning yorqin yutug‘i bo‘ldi. Uning Ulug‘bek haqidagi qasidalaridan birida olim–shoh tug‘risidagina emas, o‘zi haqida ham so‘zlab:

Falak yillar kerak aylansa–yu keltursa ilkiga,
Meningdek shoiri turk–u seningdek shohi dononi! — …

…deb yozilganida ma’lum bir tarixiy haqiqat bor edi,–deyish mumkin. Lekin biz Sakkokiy adabiy merosiga to‘la baho bera olmaymiz. Chunki uning bizgacha etib kelgan devonidan oxirgi bir qismi saqlanib qolgan, xolos” .

Sakkokiyning ijodiy merosi hajm tomondan kichik bo‘lsa ham, ammo mohiyati jihatidan kattadir. U o‘z salaflarining, qolaversa, Navoiyning ta’rifiga sazovor bo‘lganidan ham uning ijod ahli o‘rtasidagi yuksak mavqeini baholash mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Sakkokiy devonining Britaniya Turkiy qo‘lyozmalar katologida **Or.2079** raqami bilan qayd etilgan ta’rifda “Sakkokiyning devonida Xalil Sultonga bag‘ishlangan qasida, Shayxxoja Muhammad Porsoga qasida, Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlangan 5 ta qasida, to‘rtta Arslon Xoja Tarxonga bitilgan qasida” borligi aytilsa, ikkinchi nusxasi O‘zRFAning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida 1937 yil Shoislom kotib tomonidan ko‘chirilgan qandaydir manba asosida ko‘chirilgn nusxasi deb, e’tirof etgan, adabiyotshunos olimlar R.Vohidov va H.Eshonqulovlar “O‘zbek mumtoz adabiyoti” kitobida: “Bu nusxalar bir–biridan u qadar katta farq qilmaydi. Biroq ulardan birortasi ham Sakkokiy devonining to‘la va mukammal nusxasi emas. Ularda Sakkokiy g‘azallarining faqat bir qismigina berilgan, xolos. Sakkokiy devoni hamd va na’t bilan boshlanadi. Keyin 10 qasida beriladi: bir qasida – Naqshbandiy shayxlaridan Xoja Muhammad Porsoga, bir qasida – Xalil Sultonga, to‘rt qasida Mirzo Ulug‘bekka va to‘rt qasida–Arslonxo‘ja Tarxonga bag‘ishlanadi” desa, adabiyotshunos olima M.Hasanova Sakkokiy devonida 1 hamd, 1 na’t va 11 madh qasida mavjud. Madh qasidalarning bittasi Xoja Muhammad Porsoga, bittasi Xalil Sultonga, to‘rttasi Ulug‘bek Mirzoga, 1 tasi Shohrux Sultonga (ammo, bu qasida devonda “Ulug‘bek mirzo madhi” sarlavhasi bilan berilgan), to‘rttasi Arslon Xoja Tarxonga bag‘ishlangan. Jami qasidalar 407 bayt yoki 814 misrani tashkil etadi, degan har xillikka ya’ni shoir devonida 10–qasida, 11–qasida va 13–qasida (N.Mallaev, R.Vohidov va H.Eshonqulovda 10 ta, M.Hasanovada 11 ta, Kemal Eraslan va M.Ergashxo‘jaevlarda 13–qasida) bor, degan ma’lumotlarga duch kelamiz. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bu yana ancha izlanishlar olib borilishi lozimligini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda, yana shunga e’tibor qaratmoq kerakki, Shohrux Sultonga bag‘ishlangan qasida “ammo, bu qasida devonda “Ulug‘bek mirzo madhi” sarlavhasi bilan berilgan” degan. M.Hasanovaning fikrga qo‘shilamiz. Balki, Sakkokiy va uning devonlarini ancha keng o‘rgangan N.Mallaev, R.Vohidov va H.Eshonqulovda Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlangan 5 ta qasidani biri ekanliga qo‘shilmaymiz.

Endi ikkala devoni haqidagi M.Ergashxo‘jaev fikrlariga to‘xtalamiz: “Britaniya Turkiy qo‘lyozmalar katologida yozilishicha, devon 33 varaqdan iborat bo‘lib, har bir sahifada o‘n beshdadan satr bor, biroq uning ba’zi sahifalarida ko‘plab bo‘sh joylar qoldirilgan. Devon matni ikki ustunda qora siyoq bilan nasta’liq xatida bitilgan. Qasidalar devonning 3–15 varaqlaridan o‘rin olgan. Keyingi varaqlarda g‘azallar bitilgan bo‘lib, “nun”, “he” va “yo” harflari bilan tugagan baytlardan iborat. Devonning mazkur nusxasi 13 qasida va 57 g‘azalni o‘z ichiga olgan. Kemal Eraslanning ma’lumotiga ko‘ra, devon matnining so‘ngida katta jadval ichiga forscha bayt bitilgan. Undan keyin forscha olti baytlik bir nazm parchasi yozilgan” .

XULOSA. O‘zR FAning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida 1937-yil Shoislom kotib tomonidan ko‘chirilgan nusxa 27 varaqdan iborat bo‘lib, ta’liq xati bitilgan. Satrlar soni o‘n ettita. Matn juft ustun shaklida yozilgan, biroq jadval ichiga olinmagan. Mazkur nusxada Britaniya Muzeyi nusxasidagi besh g‘azal (21 b – 22 a sahifalar orasidagi) etishmaydi. 13 ta g‘azal va 52 ta g‘azalni o‘z ichiga olgan” , degan fikrlarni bildirgan olim ikki devonda ham 11 qasida emas, 13 qasida degan ekan, 2 qasida kimga bag‘ishlanganligi haqida nimagadir lom–lim demaydi.

Demak, ulardan birortasi ham Sakkokiy devonining to‘la va mukammal nusxasi emas. Ularda Sakkokiy g‘azallarining faqat bir qismigina berilgan ekan bu mavzu o‘z tadqiqotchisini kutmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A.Hayitmetov. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti.– Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot nashriyoti, 1996, 8–9 betlar (A.Hayitmetov. Uzbek literature of the Temurid period. - Tashkent, G. Gulom Publishing House, 1996, pages 8-9 // А.Хайитметов. Узбекская литература периода Темуридов.- Ташкент, Изд-во Г. Гулом, 1996, стр. 8-9.)

2. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum by Charlas Rien, Ph. D. London, 1888.284; M.Ergasho‘jaev. Sakkokiy va uning devoni haqida. // O‘zbek tili va adabiyoti, O‘zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, 2005 №8, 111–bet (Catalog of the Turkish Manuscripts in the British Museum by Charlas Rien, Ph. D. London, 1888,284; M.Ergasho‘jaev. About Sakkoki and his office. // Uzbek language and literature, “Fan” publishing house of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, 2005 №8, p. 111 // Каталог турецких рукописей в Британском музее Чарласа Риена, доктора философии. Д. Лондон, 1888 284; М.Эргашоджаев. О Саккоки и его офисе. // Узбекский язык и литература, «Фан» изд-во АН РУз, 2005 №8, стр. 111)

3. R.Vohidov va H.Eshonqulov. O‘zbek mumtoz adabiyoti.T.: Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006 –yil, 181–bet (R.Vakhidov and H.Eshonkulov. Uzbek Classical Literature. T .: Literary Foundation Publishing House, 2006, p. 181 // Р.Вахидов и Х.Эшонкулов. Узбекская классическая литература.Т.: Издательство Литературный фонд, 2006, стр. 181)

4. M.Hasanova. Sakkokiy (Sayroniymi? Sabroniy?) //Sharq yulduzi, 2011, №6, 102-bet (M.Hasanova. Sakkokiy (Sayroniymi? Sabroniy?) // Sharq yulduzi, 2011, №6, p.102 // М.Хасанова. Саккокий (Сайронийми? Сабroний?) // Шарк йулдузи, 2011, №6, с.102)

5. Mevlana Sekkaki Divani. Hazirlayan Kemal Eraslan. Anqara,1999. S.22 (Mevlana Sekkaki Divani. Prepared by Kemal Eraslan. Ankara, 1999. S.22 // Мевлана Секкаки Дивани. Подготовил Кемаль Эраслан. Анкара, 1999 год. С.22)

6. M.Ergashxo‘jaev. Sakkokiy va uning devoni haqida. // O‘zbek tili va adabiyoti, O‘zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, 2005 №8, 111–bet (M.Ergashxo‘jaev. About Sakkoki and his office. // Uzbek language and literature, “Fan” publishing house of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, 2005 №8, p. 111 // М.Эргашходжаев. О Саккоки и его офисе. // Узбекский язык и литература, «Фан» изд-во АН РУз, 2005 №8, стр. 111)

7. Yaqiniy. O‘q va yoy munozarasi. // Navoiyning nigohi tushgan… T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va sanъat nashriyoti, 1986–yil, 318– bet (Proximity. Arrow and bow discussion. // Navoi's eyes… T .: Gulom Publishing House of Literature and Art, 1986, p. 318 // Близость. Обсуждение стрел и луков. // Глаза Навои… Т.: Изд-во литературы и искусства им. Г. Гулома, 1986, стр. 318)